

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLIV TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“TRANSPORT LOGISTIKASI (TRANSPORT TURLARI BUYICHA)  
yo‘nalishi**

**“TRANSPORTDA INSON OMILI”  
moduli bo‘yicha  
O‘QUV–USLUBIY MAJMUUA**

**Toshkent 2022**

Mazkur ishchi o‘quv dastur Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25-dekabrda 538-sonli sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchi:** TAYLQEI, “Transportda intellektual tizimlar muxandisligi” kafedrasida professori v.b. t.f.d., dos. A. A. Nazarov

**Taqrizchi:** TAYLQEI, PhD. B.I. Abdullaev

*Ishchi o‘quv dastur Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021yil 29-dekabrda 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.*

## MUNDARIJA

<a href="#">I. Ishchi dastur</a> .....	5
<a href="#">II. Modulni o‘qitishda foydalaniladigan intrefaol ta’lim metodlari</a> .....	12
<a href="#">III. Nazariy mashg‘ulot materiallari</a> .....	23
<a href="#">IV. Amaliy mashg‘ulot materiallari</a> .....	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<a href="#">V. Keyslar banki</a> .....	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<a href="#">VI. Mustaqil ta’lim mavzulari</a> ...	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<a href="#">VII. Glossariy</a> .....	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<a href="#">VIII. Adabiyotlar ro‘yxati</a> .....	<b>ОШИБКА! ЗАКЛАДКА НЕ ОПРЕДЕЛЕНА.</b>
<a href="#">IX. Ilova</a> .....	

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi

Ushbu ishchi o‘quv dasturda “Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimida haydovchining o‘rni, haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta’siri, haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyati, haydovchining ish o‘rni va xarakteristik xususiyatlaridan iborat.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

**Transportda inson omili modulining maqsadi:** pedagog kadrlarning mutaxassislik fanlarini o‘qitishda o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlagan xolda transportdan xavfsiz va samarali foydalanish jarayoniga inson omilining ta’sirini mukammal bilgan holda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini yangilash iborat.

**Transportda inson omili modulining vazifasi:** tayyorlanayotgan keng qamrovli mutaxassisga transport vositalaridan foydalanishda inson omilidan samarali foydalanish, insonning psixofiziologik holatlarini transport vositalarining harakatiga ta'siri, uni ishonchliligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash, ularda fanga, o'z kasbiga qiziqishni orttirish kabi sifatlarni shakllantirishdan iboratdir.

## **II. Modulni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar**

**Kutilayotgan natijalar:** Tinglovchilar "Transportda inson omili" modulini o'zlashtirish orqali quyidagi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladilar:

### ***Tinglovchi:***

- "haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit" tizimining asosiy tasniflari;
- haydovchining psixofiziologik xususiyatlari;
- «haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit» tizimining asosiy tasniflari
- charchoq va uning haydovchining ish qobiliyatiga ta'siri bo'yicha **bilimlarga ega bo'ladi.**

### ***Tinglovchi:***

- haydovchining qobiliyati;
- haydovchining inzomiyligi;
- yo'l vaziyatlarini baholash va bashorat qilish;
- emotsional charchoqni harakat xavfsizligiga ta'siri bo'yicha **ko'nikmalarga ega bo'ladi**

### ***Tinglovchi:***

- haydovchining kasbiy tayyorgarligi;
- haydovchining qaror qabul qila olishi;
- alkogol va narkotik mastlikning harakat xavfsizligiga ta'siri.
- haydovchining ish qobiliyatidan to'g'ri foydalanish yo'llari;
- haydovchining shsh qobiliyati bosqichlari.
- haydovchi ish vaqti davomiyligini uning ishonchligiga ta'siri to'g'risida aniq **malakalarga ega bo'ladi.**

### III. Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Transportda inson omili” fani “Avtomobillarda tashish va transport logistikasi”, “Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish”, “Yo‘l harakatini tashkil etish” fanlari bilan o‘zaro bog‘liqdir va bu fanlarning uzviy davomi hisoblanadi.

### IV. Modulning oliy ta'limdagi o'рни

Yo‘lovchilar tashishni tashkil etishning roli iqtisodiyot rivojida katta ahamiyatga ega. Shu boisdan, bugungi kunda “Transportda inson omili” fanini o‘qitilishi mutaxassislarni zamonaviy talabalar asosida tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

### V. Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	“Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimida haydovchining o‘rni	4	2	2	
2.	Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta'siri.	4	2	2	
3.	Haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyati	4	2	2	
4.	Haydovchining ish o‘rni va xarakat havfsizligi	6	2	4	
	<b>Jami:</b>	<b>18</b>	<b>8</b>	<b>10</b>	

### NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu. “Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimida haydovchining o‘rni.**

Haydovchining ishonchliligi. Haydovchining kasbga yaroqliligi. Haydovchining kasbiy tayyorgarligi. Haydovchining yuqori ishonchlilik qobiliyati. Axborotlarni qabul qilish. Axborotlarni qayta ishlash. Qaror qabul qilish. Qarorni amalga oshirish. Bajarilgan xarakat ustidan nazorat., Yo‘l harakati. Avtomobil. Yo‘l. Haydovchi. Muhit. Imtiyoz. Yo‘l berish. Yo‘l yoqasi. Yo‘lovchi. Yo‘l-transport hodisasi. Yo‘l xarakati. Yo‘l xarakatini tashkil etish. Yo‘l xarakati xavfsizligi. Yo‘l xarakati xavfsizligini ta‘minlash. Yo‘l xarakati qatnashchisi. Yo‘nalishli transport vositasi. Majburiy to‘xtash. Mexanik transport vositasi. Ogoxlantiruvchi ishoralar. Piyoda. Piyodalar yo‘lkasi. Transport vositasi. Transport vositasining egasi. Trotuar. Tirkama. Haydovchi. Harakatlanish bo‘lagi. Haqiqiy vazn.

## **2-mavzu: Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta’siri .**

Haydovchining axborotni sezish kanallari. Ko‘rish. Eshitish. Sezish. Fikrlash qobiliyati. Xotira. Ruhij jarayonlar. Insonning psixofiziologik xususiyatlari: Psixomotorika. Diqqat va uning xususiyatlari. Nerv tizimining xususiyatlari. Temperament. Hissiyot. Idrok etish.

## **3-mavzu: Haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyati.**

Haydovchining shaxsi. Talab (extiyoj). Layoqat. Temperament. Sangvinik. Flegmatik. Xolerik. Melonxolik. Xarakter. Xaydovchining ishonchliligi. Ruxij jarayon. Shaxsning xususiyatlari. Analizatorlar. Signallar. Signalning rangi. Signalning kuchi. Signalning o‘lchami. Signalning shakli. Signalning joylashuvi. Signalning harakati. Signalning uzatish vaqti. Signalning paydo bo‘lish ehtimoli.

## **4-mavzu: Haydovchining ish o‘rni va xarakat havfsizligi.**

Haydovchini ish o‘rni. Avtomobilning kamfortligi. O‘rindiqni xarakterlovchi parametrlar. Boshqaruv organini xarakterlovchi parametrlar. Ish o‘rnini fizik kimyoviy sharoitini xarakterlovchi parametrlar. Rul chamberagi. Tashqi va ichki ko‘zgularni to‘g‘ri joylashishi. Haydovchini to‘g‘ri joylashuvi. Axborotlarning xarakteri va xajmi. avtomobilni titrashini va tebranishi. Kabinaning

mikroiqlimi. Isitish tizimlari. Oynalarni yaxshi ochilishi. Haydovchining ish staji. Haydovchi reaksiyasining turg'unligi. Charchash. O'ta charchash

## **AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZUSI**

### **1-mavzu: "Haydovchi-avtomobil-yo'l-muhit" tizimida haydovchining o'rni.**

Temperament tushunchasi inson faoliyati va xulq-atvorining xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan individuallikning muhim tarkibiy qismlaridan birini anglash.

### **2-mavzu: Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta'siri**

Inson vizual analizatorining xususiyatlarini o'rganish. Psixik jarayonlar: ko'rish sezgilari va fazoviy idrok etish. . Vizual analizatorning xossalarini aniqlash."Katta o'lchamli" bo'sh texnikasi yordamida ko'zni tekshirish.

### **3-mavzu: Haydovchining shaxsi va kasbiy faoliyati.**

"Inson e'tibori va yo'l harakati xavfsizligi"ni aniqlash.Diqqat sifatlarini o'rganish. Ularni sanab bering va tavsiflash. Qizil-qora Schulte-Platonov jadvali yordamida diqqatni o'rganish.. "Tuzatish" bo'sh texnikasi yordamida uzoq muddatli monoton ish paytida diqqatning barqarorligini o'rganish.

### **4-mavzu. Haydovchining ish o'rni va xarakteristik xususiyatlari .**

"Insonning tafakkuri va xotirasi"ni aniqlash. "Naqshlarni o'rnatish" blank texnikasi yordamida fikrlash xususiyatlarini o'rganish. "Raqamlar qatori" blank texnikasi yordamida fikrlash xususiyatlarini o'rganish. Xotira psixik jarayon sifatida. "Mashtab" blank texnikasi yordamida ishchi xotirani o'rganish.

## **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limni tashkil etish shakllari aniq o'quv material mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:



- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot;
- mustaqil ta'lim.
- O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:
- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishlash** – Bunda o'qituvchi guruhlarining bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishlash** – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin. Bir turdagi guruhli ish o'quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriq bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

### “SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S – (strength)</b>	• kuchli tomonlari
<b>W – (weakness)</b>	• zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O – (opportunity)</b>	• imkoniyatlari
<b>T – (threat)</b>	• to'siqlar

**Namuna:** Mobil qurilmalar uchun Android operatsion tizimining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Tashish jarayonida logistik usullardan foydalanishning kuchli tomonlari	Maxsulotlarni iste'molchiga yetkazib berishning optimal tashkil etilishi...
<b>W</b>	Tashish jarayonida logistik usullardan foydalanishning kuchsiz tomonlari	Kam miqdorda maxsulotlar tashishda tayyorgarlik jarayonini uzoq davom etishi...
<b>O</b>	Tashish jarayonida logistik usullardan foydalanishning imkoniyatlari (ichki)	Mahsulotlarni iste'molchiga o'z vaqtida, kearkli miqdorda, eng kam sarf xarajatlar bilan yetkazib berish....
<b>T</b>	To'siqlar (tashqi)	Logistik markazlarning keng miqiyosda tarqlmaganligi...

## **Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### **Namuna:**

Logisik tizimlar					
Mikroiqtisodiyot		Makroiqtisodiyot		Mezologistik	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

### “Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va oʻquv topshirigʻni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali oʻquv topshirigʻining yechimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yoʻllarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalga qoʻllash</li> </ul>

asoslash, taqdimot.	imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish
---------------------	--

**Keys.** Ma'lum bir vaqt oralig'ida Logistik markazga olib kelingan yuklarning hajmi markazdagi omborlarda sig'imidan katta ekan. Shu boisdan yuklarni saqlash bo'yicha muammo vujudga keldi.

#### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Yuklarni qaysi qismlarini omborlarga joylashtirish, qaysi qismini iste'molchilarga jo'natish muammosini hal qiling (juftliklarda).

#### «FSMU» metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

<b>F</b>	• fikringizni bayon eting
<b>S</b>	• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
<b>M</b>	• ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol keltiring
<b>U</b>	• fikringizni umumlashtiring

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

**Namuna.**

**Fikr:** “Logistik tizim – material va unga hamrox boshqa oqimlarni boshqaruvchi va bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zining iqtisodiy-tashkiliy maqsad va mexanizmlariga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi murakkab tashkiliy-texnologik tuzilmadir.”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

**“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



#### **Test**

Qanday logistik oqimlar mavjud?

- A. Moddiy va axborot oqimlari
- V. Tashish oqimlari
- S. Harakat oqimlari



#### **Qiyosiy tahlil**

- Moddiy va axborot oqimlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qiling.



#### **Tushuncha tahlili**

- Logistik tizimda faolyait ko‘rsatuvchi oqimlarni izohlang...



#### **Amaliy ko‘nikma**

- Logistik markazda ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha shartnomani rasmiylashtiring.

### **“Blis-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya‘ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a‘zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta‘sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni «to‘g‘ri javob» bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. «To‘g‘ri javob» bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng «yakka xato» bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to‘g‘ri javob» va «guruh bahosi» o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**«Haydovchining psxofiziologik ko‘rsatkichlarini harakat xavfsizligiga ta’siri» jarayoni ketma-ketligini joylashtiring. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**

<b>Psxofiziologik ko‘rsatkichlar</b>					
Haydovchining emotsional holati					
Haydovchining xarakteri					
Haydovchining temperamenti					
Haydovchining axborotni qabul qilish darajasi					
Haydovchining irodasi					
Haydovchining qobiliyati					



### III. NAZARIY TA'LIM MATERIALLARI

#### 1-mavzu: “Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimida haydovchining o‘rni.

##### Reja:

1. “Haydovchi-avtomobil-yo‘l-muhit” tizimining asosiy tasniflari.
2. Haydovchining qobiliyati.
3. Haydovchining kasbiy tayyorgarligi.
4. Haydovchining fiziologik holati.

Haydovchining ishonchliligi deganda uni belgilangan vaqt davomida har qanday yo‘l sharoitida vazifasini bexato bajarish xususiyati tushuniladi.

Haydovchining ishonchliligini belgilovchi ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1. Haydovchining kasbga yaroqliligi
2. Uning kasbiy tayyorgarligi.
3. Haydovchining yuqori ishonchlik qobiliyati.

Axborot – inson yoki biror-bir maxsus qurilma bilan bizni o‘rab turgan olam va undagi jarayonlarni kechishi haqidagi malumotlar.

Axborotlarni olishda, qayta ishlash jarayonida qaror qabul qilishda va uni haydovchilik faoliyatida qo‘llashda 5 ta etap mavjud:

1. Axborotlarni qabul qilish. Bunda haydovchi yo‘ldagi axborotlar oqimidan xarakteristik xavfsizligini taminlash uchun zarur bo‘lganlarini ajratib olish lozim bo‘ladi.

2. Axborotlarni qayta ishlash. Bunda kelayotgan axborotlarni bilish, baxolash va axborotlarni solishtirish jarayoni ketadi.

3. Qaror qabul qilish. Bunda holatni baxolash orqali qarorni yakdilligini aniqlash. Bir nechta variantlardan optimalini tanlash jarayoni ketadi.

4. Qarorni amalga oshirish. Bunda qabul qilingan qarorga mos ravishda boshqaruv organlariga ta’sir qilish.

5. Bajarilgan xarakteristik ustidan nazorat.

Inson transport jarayonida eng muhim o‘rin tutadi. Chunki inson bu haydovchi, yo‘lovchi xamda piyoda demakdir. Bundan tashqari transport jarayonining yagona ongli qatnashchisi ham insondir. Qolaversa, ushbu jarayon aynan inson tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda ko‘p soxalar singari transport soxasi ham rivojlandi. Ayniqsa, so‘nggi 2 yil ko‘plab diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Bularga yaqqol misol tariqasida 2016-yil yoz oylarida Muqimiy ko‘chasidagi yangi qurilib

foydalanishga topshirilgan mostni va shu bilan birgalikda shu yilning 25-mart kuni ochilish marosimi bo'lib o'tgan Novza metrosi qarshisida qad ko'targan yangi ko'priknini misol keltirishimiz mumkin. Bular avtomobil transportining yurtimizdagi istiqbolli kelajagidan darak berib turibdi. Transport keng tushuncha ekanligini inobatga olgan holda temiryo'l transportidagi eng muhim amalga oshirilib ulgurilgan ishlar xaqida to'xtalib o'tmoqchiman. Bundan qariyb 2 yil avval Ispaniyadan olib kelinib, "Afrosiyob" deb nom olgan tez yurar poezd, O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatida eng so'nggisi bo'lib qolmadi. Toshkent-Andijon yo'nalishida dovon ichida qariyb 19.2 km masofani bosib o'tib, tog' oralab o'tgan poezd tarixda birinchi bor Farg'ona vodiysini Toshkent shaxri bilan bog'ladi va bu bilan chegaralanib qolmasdan xattoki Andijon-Moskva yo'nalishi ochildi. Endi yana mamlakatimizdagi eng rivojlangan transport turi avtomobil transportiga to'xtalsam. 2017-yil 15-martdan Toshkent shaxrining 115 chorraxasida videokameralar qoida buzgan xaydovchilarga nisbatan jarima yoza boshladi. Bu kameralar 2016-yilning 1-yanvaridan qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan ular xech qanday qoidabuzarlikni nazarda tutmagan.

Avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik bo'lmagan transport vositalari, xarakatlanayotgan yoki xarakatda bo'lmagan piyodalar majmuidan iborat murakkab dinamik tizim mavjuddir. Bu tizim YO'L XARAKATI deb ataladi.

Yo'l xarakatining muammolari va maxsus tomonlari, eng avvalo, "avtomobil-xaydovchi-yo'l-piyoda" tizimi orqali belgilanadi. Ular o'z navbatida atrof muhitda faoliyat ko'rsatadilar. Tizimga quyidagi tashkiliy qismlar kiradi: A (avtomobil), X (xaydovchi), Y (yo'l), M (muhit).

Bu tashkiliy qismlar muhitda faoliyat ko'rsatibgina qolmasdan, atrof-muhit bilan ularning har biri chambarchas bog'liq bo'ladi.

MUHIT deb, atrof-muhitning yo'l xarakati xavfsizligiga mujassamlashgan ta'siri tushuniladi va u quyidagi omillardan tashkil topadi: ob-xavo (metrologik ko'rinish, yogingarchilik, shamol, harorat); tabiiy landshaft (tekislik, qir-adirlar, toglik, yer osti-usti suvlari va h.k.); mexanik (shovqin, chang, tebranish, gaz chiqindilari bilan ifloslanganlik va h.k.);

"A-X-Y-M" tizimida mexanik "avtomobil-yo'l" va biomexanik "xaydovchi-avtomobil", "xaydovchi-yo'l" xamda tizimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

"A-Y-X-M" tizimi optimal ravishda faoliyat ko'rsatishida tizimdagi avtomobil, xaydovchi, yo'l, piyoda va muhit tashkil etuvchilarining aloxida xamda ularning birgalikdagi A-X, X-Y, Y-A va boshqa tasniflari katta ahamiyatga ega.


Avtomobil transportining konstruktiv o'lchamlari yo'l xarakatining tasnifiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda avtomobilning geometrik o'lchamlari tortish va tormozlanish sifati, xaydovchi ish o'rning qulayligi va yengil boshqarilishi muhim o'rin egallaydi.

Avtomobil yo'li "A-Y-X-M" tizimi faoliyatiga o'zining geometrik elementlari o'lchamlari va transport-yekspluatatsion sifatining o'zgarishi orqali ta'sir etadi.

Yo'l xarakati xavfsizligi, eng avvalo, xaydovchining ishonchliligiga, uning tayyorgarligiga va ishchi qobiliyatiga bogliq.

Piyodalar yo'l xarakatida aloxida o'rin egallaydilar. Ular yo'l xarakati qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari real yo'l sharoitlarida xarakat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi.

Umumiy tomonlardan optimal ravishda kelib chiqqan xolda, yo'l xarakati xavfsizligini ta'minlashda birinchi navbatda "A-X-Y-M" tizimdagi har bir tashkil etuvchilarning va birgalikda faoliyat qiluvchilarning tasniflarini optimallashtirish orqali erishish mumkin.



### Yo'l xarakati xavfsizligi to'g'risidagi qonundagi asosiy tushunchalar

Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qabul qilingan:

IMTIYOZ- mo'ljallangan yo'nalishda boshqa yo'l xarakati qatnashchilariga nisbatan oldin xarakatlanish xuquqi.

YO‘L\_-transport vositalari va piyodalarning xarakatlanishi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan yer bo‘lagi yoxud sun‘iy inshoot yuzasi. Yo‘l avtomobil va shaxar elektr transporti yo‘llarini hamda trotuarlarni o‘z ichiga oladi.

YO‘L BERISH- Yo‘l harakati qatnashchilariga nisbatan imtiyozi bo‘lgan boshqa yo‘l harakati qatnashchisining xarakat yo‘nalishi yoki tezligini o‘zgartirishga majbur etishi mumkin bo‘lgan xollarda xarakatni davom ettirmasligini yoki boshlamasligini, biror bir manyavr bajarishi mumkin emasligini bildiruvchi talab.

YO‘L YoQASI- Yo‘lning qatnov qismiga u bilan bir satxda bevosita tutashgan, qoplama turi bilan farq qiladigan yoki 1.1 yo‘l chizig‘i yordamida ajratilgan, qoidalarga muvofiq xarakatlanish, to‘xtash va to‘xtab turish uchun mo‘ljallangan bo‘lagi.

YO‘LOVCHI - transport vositasidagi (xaydovchidan tashqari) shaxs.

YO‘L-TRANSPORT HODISASI- transport vositasining yo‘lda xarakatlanishi jarayonida ro‘y bergan, fuqarolarning xalok bo‘lishiga yoki sog‘ligiga zarar yetkazilishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklarning shikastlanishi yoxud boshqa moddiy zarar yetishiga sabab bo‘lgan xodisa.

YO‘L XARAKATI-odamlar va yuklarning transport vositasi yordamida yoki bunday vositalarsiz yo‘llar doirasida xarakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

YO‘L XARAKATINI TASHKIL ETISH-yo‘llarda harakatni boshqarish bo‘yicha xuquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv xarakatlari majmui.

YO‘L XARAKATI XAVFSIZLIGI-yo‘l harakati qatnashchilarining yo‘l-transport xodisalari va ularning oqibatlaridan ximoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo‘l harakati xolati.

YO‘L XARAKATI XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH-yo‘l transport xodisalari yuzaga kelishi sabablarining oldini olishga, ularning og‘ir oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan faoliyat.

YO‘L XARAKATI QATNASHCHISI- yo‘l harakati jarayonida transport vositasining xaydovchisi, yo‘lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

YO‘NALISHLI TRANSPORT VOSITASI- belgilangan yo‘nalishi va bekatlari bo‘lgan, yo‘lovchi tashish uchun mo‘ljallangan umum foydalanishdagi transport vositalari (trolleybus, tramvay, avtobus, yo‘nalishli taksi).

MAJBURIY TUXTASH- texnik nuqson, tashilayotgan yuk, xaydovchi va yo‘lovchining xolati, yo‘ldagi biror to‘siq tufayli xavf yuzaga kelganda yoxud ob xavo sharoitiga bogliq xolda transport vositasi xarakatini to‘xtatish.

MEXANIK TRANSPORT VOSITASI-dvigatel bilan xarakatga keltiriladigan transport vositasi (mopeddan tashqari). Bu atama barcha traktor va o'ziyurar moslamalarga xam taalluqlidir.

OGOXLANTIRUVChI ISHORALAR- avariya xolatlarini oldini olish maqsadida, shuningdek, xarakat yo'nalishini o'zgartirishda qo'llaniladigan ishoralar.

PIYO'DA- transport vositasidan tashqarida bo'lgan va yo'lda biror bir yumush bilan band bo'lmagan shaxs. Velosiped, moped, motosikl, chana, aravacha va bolalar xamda nogironlar aravachasini yetaklagan, nogironlarning dvigatelsiz aravachasida xarakatlanayotgan shaxslar ham piyoda xisoblanadilar.

PIYO'DALAR YO'LKASI- yo'lning piyodalar xarakatlanishi uchun mo'ljallangan va transport vositalari xarakati taqiqlangan qismi.

PIYO'DALARNING TASHKILIY JAMLANMASI- qoidalarning 16-bandiga muvofiq, yo'lda bir yo'nalishda birgalikda xarakatlanayotgan odamlar guruhi.

TRANSPORT VOSITASI- odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan qurilma.

TRANSPORT VOSITASINING EGASI- transport vositasiga mulk xuquqi yoki boshqa ashyoviy xuquqlar asosida egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

TROTUAR – qatnov qismiga tutashgan yoki undan maysazor, ariq, maxsus to'siqlar bilan ajratilgan va piyodalarning xarakatlanishi uchun mo'ljallangan yo'l qismi.

TIRKAMA- mexanik transport vositasi

XAYDOVChI — yo'llarda transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs. Boshqarishni o'rgatuvchi, ot-aravani boshqarayotgan, xayvonlarni minib xarakatlanayotgan yoki ularni yetaklab borayotgan, chorva mollari (poda)ni xaydab borayotgan shaxslar xaydovchiga tenglashtiriladi.

XARAKATLANISH BO'LAGI — avtomobillarning bir qator bo'lib xarakatlanishi uchun yetarlicha keng bo'lgan, yo'l chiziqlari bilan belgilangan yoki belgilanmagan yo'l qatnov qismining xar qanday bo'ylama bo'lasi.

XAQIQIY VAZN — transport vositasining yuki, xaydovchi va yo'lovchilari bilan birgalikdagi vazni.

### **Nazorat savollari:**

1. HAYM tizimi nimani anglatadi?
2. Tizimli ob'ekt nima?
3. HAYM tizimining asosiy tasniflarini keltiring..
4. Inson-operatorning ishonchliligi nima?

5. Yo‘ldagi vaziyatni rivojlanishini baholash va bashorat qilish qobiliyati nimn anglatadi?
6. Haydovchining kasbiy tayyorgarligi nima?
7. Haydovchi ishonchliligiga uning tajribasi qanday ta’sir ko‘rsatadi?
8. Haydovchining fiziologik holati harakat xavfsizligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
9. Haydovchining alkogol va narkotik ta’sirida mastligi qanday namoyon bo‘ladi?
10. Haydovchi ish qobiliyati o‘zagrishi bosqichlarini sanab bering.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Ryabchinskiy A.I. Reglamentatsiya aktivnoy i passivnoy bezopasnosti avtotransportnykh sredstv: ucheb. Posobie dlya vuzov I.S. «Akademiya» 2006 g. – 290 str.
2. Romanov A.N. Avtotransportnaya psixologiya. Uchebnoe posobie. Vysshaya shkola «Akademiya» 2002-224 st.
3. Darabov M. Yo‘l-transport hodislaridan iqtisodiy yo‘qotishlarni aniqlash uslubi”, TAYI, T.: 2011, 62 b.
4. Korshakov I.K. Avtomobil i peshexod analiz mexanizma naezda. M: Transport 1988 – 142 b.
5. Mishurin V.M., Romanov A.N. «Nadyojnost voditelya i bezopasnost dvijeniya» M., Transport 1990 -182s.

## **2-mavzu. Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta'siri.**

### **Reja:**

1. Iroda tushinchasi.
2. Haydovchining inzomiyligi.
3. Haydovchining qaror qabul qila olishi.
4. Haydovchining psixofiziologik xususiyatlarining transport vositasini boshqarishga ta'siri

Haydovchining axborotni sezish kanallari – ko‘rish, eshitish va sezish.


Yo‘lda joylashgan narsalar, yo‘l holati, transport vositasi haqidagi axborotlar haydovchiga sezgi organlari orqali ta'sir etib, tevarak – atrofdagi narsalarning inson ongida alohida ko‘rinishlarini namoyon etadi. Haydovchi kerakli axborotlarning asosiy qismini bevosita yo‘lni va undagi ob'ektlarni ko‘rish, eshitish va sezish a'zolari yordamida oladi.

Ko‘rish. Ko‘rish qobiliyati orqali haydovchi avtomobilning yo‘ldagi holatini, buyumlar, ularning formalarini, o‘lchamini, priborlar ko‘rsatmasini ko‘radi. Inson ko‘zi orqali juda ko‘p ranglarni bir – biridan ajrata oladi. Inson eng oson ajrata oladigan ranglar – qizil, yashil, havorang, sariq, qora va oq ranglardir. Haydovchi avtomobilni xavfsiz boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborotlarning qariyb 90 foizini ko‘zi orqali qabul qiladi.

Ko‘zdan ancha uzoq masofada bo‘lgan narsalarning formasini aniqlashga ko‘zning ko‘rish o‘tkirligi deyiladi.

Agar ko‘zning markazidan shartli ravishda konus shakli o‘tkazilsa, uning burchaklariga qarab ko‘zning o‘tkirligi quyidagicha bo‘ladi: 3 – 4 gradusli konus ostidagisi – ko‘zning a‘lo o‘tkirligini; 7 – 8 gradusli konus ichidagisi – yaxshi o‘tkirligini, 13 – 14 gradus ichidagisi – qoniqarli o‘tkirlikni bildiradi.


Ko‘rish maydoni 20 % dan ko‘p qisqargan shaxslarga avtomobilni boshqarishga ruxsat etilmaydi.



Ko‘rinish uzoqligi ob‘ektning ravshanligi va asosiy rang (fon)ga nisbatan keskin farqiga va harakatlanish tezligiga bog‘liq bo‘lib, quyidagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkin.

Ob‘ekt	Harakatlanish tezligi km/s bo‘lganda ko‘rinish masofasi. m.		
	40	60	80
Yo‘l qoplamasi (holat)	25	43	57
Qarama-qarshi harakatlanayotgan avtomobillar	200-300	200-500	300-500
Yo‘lning umumiy yo‘nalishi	200-1000	500-2000	1000-1500

Avtomobil tezligi soatiga 80 km.dan ko‘p bo‘lganda, 60-120 m, oldinda bo‘lgan yo‘l qismi, haydovchini ko‘rish maydonidan chetda qoladi. Bunday holatlarda yo‘l chetidan yo‘l markaziga qarab harakatlanayotgan piyodalarni urish xavfi oshadi.





Eshitish. Avtomobil agregatlari va nosoz avtomobilga xos bo'lgan shovqinni, tovush ishoralarini haydovchi eshitish organi orqali qabul qiladi.

Sezish. Sezish – bu axborotni qabul qilishning ruhiy jarayonidir. Sezish orqali haydovchi narsalar holati va xususiyatini anglaydi. Masalan, haydovchi yo'l qoplamasining notekislikdagi tebranishini, avtomobilning harakat yo'nalishini, tezligini sezish orqali qabul qiladi. Sezish qobiliyati turli odamlarda turlicha bo'ladi. U odamlarning tabiiy ko'rsatkichlari, yoshi, tajribasi, ko'nikmasi, kasbiy bilimi va boshqa sifatlariga bog'liq bo'ladi. Tajribali haydovchi tajribasizga qaraganda yo'lning yoritilganini cheklangan joylarda yaxshiroq sezadi. Nosoz avtomobilga xos bo'lgan shovqinni sezish orqali tezroq ajratadi. Sezish qobiliyati haydovchining tajribasi va sog'lig'ining holatiga qarab o'zgaradi.

Ruhiy jarayonlar: diqqat, xotira, fikrlash, psixomotorika, his etish va qabul qilish haqida tushuncha va ularning avtotransport vositasi boshqaruviga ta'siri.

Insonning psixofiziologik xususiyatlari: diqqat, xotira, fikrlash, qabul qilish, psixomotorika, his etish va shaxsning o'ziga xos jihatlari avtotransport vositasini xavfsiz boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Bu ruhiy xususiyatlar mashq qilish bilan shakllanadi.

His qilish. Haydovchi murakkab vaziyatlarga tushib qolganida, boshqalarning yordamiga juda muhtoj bo'ladi. Lekin bunday vaziyatda atrofidan ancha haydovchilar o'tib ketganiga qaramay yordamga keluvchilar kam bo'ladi. Agar harakat ishtirokchilari o'zaro xushmuomala, xayrxoh, yordamga tayyor bo'lsalar, haydovchi o'zini ancha tetik his qiladi va o'ziga bo'lgan ishonchi yanada ortadi.

Haydovchi kabinadagi havo tarkibida ishlatilgan gazlarni, yonilg'i bug'larining aralashmasini va boshqa zarur axborotlarni ham his etish orqali qabul qiladi.

Fikrlash. Ko'pgina muammolarni yechishdan oldin inson qabul qilgan signallarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, so'ngra o'zidagi bilimi va tajribasi asosida xulosa chiqaradi. Insonning bunday qobiliyati fikrlash deb ataladi. Fikrlash orqali inson jarayonlarni tushunib yetadi va o'zining xatti – harakatlari qanday oqibatlariga olib kelishini oldindan ko'ra oladi.

Fikrlash qobiliyati 3 turga bo'linadi: tushunish, mulohaza qilish va xulosa chiqarish. Fikrlash qobiliyatining tezkor va samarali bo'lishida insonning xotirasi ham juda muhim rol o'ynaydi.

Xotira. Axborotni kiritish, saqlash va qaytarish jarayoniga xotira deyiladi. Haydovchilik kasbi yo'llarda harakatlanish qoidalarini chuqur bilish, avtomobilni xavfsiz boshqarish amallarini bajarish, harakat yo'nalishlari va uning xususiyatlarini esda saqlashni talab qiladi. Haydovchi har xil yo'l sharoitida harakatlanar ekan,

xotirasiga asoslanib, avtomobilni boshqarish bo'yicha qisqa vaqtda to'g'ri yechimlar qabul qila oladi.

Haydovchi ishlashi uchun eng muhimi ko'rish va harakatlanish xotirasidir. Ko'rish xotirasi orqali haydovchi harakatlanish yo'nalishi, uning xarakterli mo'ljallari, maxsus e'tiborni talab qiladigan yo'l qismlari, ob'ektlarning joylashuvi va ulargacha bo'lgan masofani esda saqlaydi.

Psixomotorika. Inson organizmidagi jismoniy va ruhiy jarayonlarning o'zaro birgalikda aniq bir harakatga yo'naltirilishi psixomotorika deyiladi. Haydovchi avtomobilni harakatlantirishni boshlaganda, tormoz yoki drossel zaslonkasi tepkisini bosadi, rul chambaragini buradi, uzatmalarni almashtiradi, tovushli ishora tugmasini bosadi. Haydovchining mana shu amallari psixomotor reaksiyasi deyiladi.

Qabul qilish. Haydovchi avtomobilni boshqarar ekan, zarur bo'lgan axborotlarni qisqa muddat ichida qabul qilib olishi, ularni anglab yetishi va to'g'ri yechimlar qabul qilib, ularni amalga oshirishi kerak. Haydovchi kerakli axborotlarning asosiy qismini bevosita yo'lni va undagi ob'ektlarni ko'rish, eshitish va sezish a'zolari yordamida qabul qilib oladi.

Turli yo'l vaziyatida bir holatni qabul qilish uchun har xil diqqat intensivligi talab qilinishi mumkin. Masalan, xavfli vaziyatlarda intensivlik qancha katta bo'lsa, qabul qilish shuncha to'liq bo'ladi.

Haydovchi 1 sekund davomida yo'ldagi 10 tacha predmetlarni ilg'ay oladi, 1 minut ichida 30 dan 120 tagacha har xil harakatlarni bajaradi. Haydovchi harakatlanayotganda, avtomobilni o'zi xohlaganidek boshqarib bora olmaydi. Chunki, u uzluksiz ravishda boshqa harakat qatnashchilari bilan munosabatda bo'lib, ularning xatti – harakatlariga mos ravishda avtomobilni bosh qarishi kerak.

#### Diqqat va uning xususiyatlari

Diqqat. Haydovchining psixofiziologik tavsiflaridan biri diqqat bo'lib, bu – ongni biron – bir ob'ektga alohida qaratishdir. Diqqat bir necha xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Haydovchining bir vaqtda diqqatini qarata olishi mumkin bo'lgan ob'ektlarning miqdoriga, ya'ni bir vaqtda bir necha ob'ektlarni baholash qobiliyatiga diqqatning hajmi deyiladi. E'tibor hajmi haydovchining harakatlanish sharoiti, ruhiy holati va tajribasiga bog'liq.

Odatda, haydovchi bir vaqtda beshtagacha ob'ektga diqqatini qaratadi. Harakat jadalligi yuqori bo'lgan sharoitda haydovchi bir paytda uchtagacha yo'l belgisiga diqqatini qarata olishi mumkinligi aniqlangan. Murakkab chorrahalarda transport vositalari ko'p bo'lganda, harakatlanish xavfsizligini ta'minlaydigan barcha axborotlarni qabul qilishga ayrim haydovchilarning e'tibor hajmi yetmay qolishi mumkin.

Haydovchining eng muhim bo'lgan, xavf-xatar tug'diradigan ob'ektlarga, ya'ni piyodalarga, oraliq va yon masofalarga, yo'lakay va qarama-qarshi harakatlanadigan transportlarga bo'lgan diqqatini ko'zdan qochirmaslik barqarorlik hisoblanadi.

Diqqatning taqsimlanish xarakteri, asosan, avtomobilning harakatlanish tezligi, harakat intensivligi va ob'ektlarning joylashuviga bog'liq. Yuqori tezlik haydovchidan intensivroq diqqatni talab qiladi.

Harakatlanish intensivligi qancha yuqorilansa, ayniqsa, yo'l tor bo'lgan joylarda, haydovchi yo'lakay va qarama-qarshi harakatlanayotgan avtomobillarga diqqatni qaratishga shunchalik majbur bo'ladi.

Haydovchi bir paytning o'zida faqat ma'lum miqdordagi narsalargagina diqqatini qarata olishi konsentratsiya deyiladi. Haydovchining transport vositasini boshqarib borish jarayonida bir paytning o'zida diqqatini yo'lga, undagi ob'ektlarga, har xil signallarga qaratishi uning mahorati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Haydovchi zarur bo'lganda bir amaldan boshqasiga o'tishi uchun diqqatini qayta taqsimlay bilishi kerak. Tajribali haydovchi barcha diqqatini yo'l vaziyatiga qaratadi, qo'l va oyoq harakatiga e'tibor bermaydi. Diqqatni oldindan yo'lga qaratish murakkab vaziyat vujudga kelishining oldini oladi yoki xavfli oqibatni yengillashtiradi.

Diqqat chalg'ishining asosiy alomatlari

Haydovchi harakatlanish jarayonida kam miqdorda bo'lsa ham alkogol va giyohvand moddalarni iste'mol qilsa, avtomobilni dam olmasdan boshqarib charchasa va betob bo'lsa, u lanjlashadi, ishlash qobiliyati sustlashadi, natijada diqqati chalg'iydi.

Diqqati chalg'igan haydovchi e'tiborini ikkinchi darajali, ya'ni yo'l harakatiga daxli bo'lmagan ob'ektlarga qaratadi, ularga ortiqcha berilib ketishi natijasida yo'l belgilariga bo'lgan e'tibori susayadi, keskin harakatlanish oqibatida harakat xavfsizligi buzilib, yo'l – transport hodisalari sodir bo'lishi, og'ir hollarda esa, piyodalarni urib ketish ehtimoli ortadi.

Diqqat chalg'ishining sabablari

Diqqat chalg'ishining sabablari, ya'ni harakat boshlangandan keyin xavfsizlik kamarini taqish yoki orqani ko'rsatuvchi ko'zgularni moslash, radiopryomnik yoki navigatsiya tizimini sozlash, chekish yoki ovqatlanish, telefondan foydalanish va yo'lovchilar bilan bahslashish.

Haydovchi harakatlanish vaqtida, asosan, o'zining diqqatsizligi tufayli avtomobil nazoratini yo'qotishi va ko'pincha tovush ishoralarini ham sezmay qolishi mumkin.

Harakat boshlangandan keyin xavfsizlik kamarini taqishi, orqani ko'rsatuvchi ko'zgularni moslashi, audio jihozlarni ishlatishi, ya'ni salonda musiqani baland ovozda qo'yib olishi, harakatlanish jarayonida yo'lovchi bilan suhbatlashib ketishi, telefonda so'zlashishi, salonda chekishi, ovqatlanishi kabi holatlar haydovchi diqqatining chalg'ishiga sabab bo'ladi. Telefondagi muloqotni poyoniga yetkazish, radiodan o'zi izlagan kanalni topish, chekishni oxiriga yetkazish, ovqatlanishni tugatish uchun ketgan ortiqcha vaqti haydovchining diqqatini chalg'itadi. Natijada, harakatdagi avtomobil shu o'tgan soniyalarda haydovchi izmidan chiqishi muqarrar. Bu esa o'z navbatida harakat xavfsizligiga katta tahdid soladi.

Shu bilan birga, transport vositasi haydovchisining avtomobilda uzoq vaqt bir xil ob'ektni kuzatib borishi, dam olmasdan boshqarishi natijasida charchashi, betobligi yoki mas'uliyatsizligi haydovchi diqqatining chalg'ishiga sabab bo'ladi.

#### Nerv tizimining xususiyatlari va temperament

Nerv tizimi odam organizmining barcha hujayra, to'qima va organlarining ishini boshqarish, tartibga solish hamda ularning bir – biri bilan o'zaro bog'lanishini ta'minlashdan iborat. Nerv tizimi odamning tashqi muhit va atrofdagi boshqa odamlar bilan muomalasini, organizmning tashqi muhit sharoitiga moslashuvini ta'minlaydi. Bosh miya katta yarimsharlarining po'stloq qismi odam oliy nerv faoliyatining fiziologik asosi hisoblanadi. Odamning fikrlashi, ongi, o'zlashtirishi, eslab qolishi, boshqalar bilan muomala qilishi, murakkab harakatlarni bajarishi miya po'stlog'ining faoliyatidir.

Haydovchilik kasbida nerv tizimining sog'lom bo'lishi nihoyatda katta ahamiyatga ega. Chunki haydovchi harakatlanish jarayonida har xil yo'l sharoitida turli holatdagi, turli temperamentdagi yo'l harakati qatnashchilari bilan muloqotda bo'ladi.

Temperament shaxsning o'ziga xosligini ifodalab, ruhiy jarayonlarning o'tish doirasini aniqlaydi, shu bilan birga, nerv tizimining xususiyatlarini shakllantiradi. Temperamentning to'rtta turi mavjud: xolerik, sangvinik, flegmatik va melenxolik.

#### Hissiyot va idrokning avtotransport vositasi boshqaruviga ta'siri

Keskin burilishlarda, surunkali balandliklarga ko'tarilish va pastliklarga tushishda, murakkab yo'l sharoitlarida, kutilmagan xavfli vaziyatlarda haydovchi bexavotir harakatlanish ketma – ketligini bajara olmay qolishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ijobiy hissiyotlar haydovchining kayfiyatiga, ishning me'yoriy ritmiga, murakkab yechimlarni tez hal qilishga yordam beradi. Yaxshi kayfiyat, ishga mas'uliyat bilan qiziqib yondashish, topshirilgan ish javobgarligi harakat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Salbiy hissiyotlar yomon kayfiyat, tez charchash, o'ziga ishonmaslik, qo'rquv hissiyotlarini olib keladi va yo'l – transport hodisasining kelib chiqish ehtimolini yaratishi mumkin.

Haydovchi avtotransport vositasini boshqarishda ortiqcha hissiyotlarga berilmasligi, vazminlik va bosqlik bilan harakat qilishi lozim. Har qanday vaziyatlarda haydovchi jamoat joyidagi tartib – intizomga rioya qilishi, o'zaro samimiy munosabatda bo'lishi kerak. Ayniqsa, yo'l – transport hodisasi yuz berganda, haydovchi hissiyotga berilmasligi, esankirab qolmasligi, sovuqqonlik bilan o'zini bosib harakat qilishi kerak.

Idrok etish. Predmetlarni va voqelikni mujassam hollarda aks ettiruvchi psixik jarayon idrok etish deyiladi. Haydovchi o'z idroki bilan qabul qilib olgan signallaridan harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi eng asosiylarini ajratib oladi. Tajribali haydovchilar bir xil sharoitda tajribasiz haydovchilarga nisbatan ko'proq signallarni qabul qiladi va anglab yetadi. Idrok etishda insonning xotirasi, fikrlash qobiliyati, tasavvuri, hatto fahm – farosati ham katta rol o'ynaydi.

